

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HAMDA PEDAGOGIK
TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O‘TKAZISH BO‘YICHA TALABGOR O‘RTASIDAGI**

SHARTNOMA № _____

« ____ » _____ 202__ yil

Jizzax shahri

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-289-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to’g’risida”gi Nizom, 2021-yil 27-avgustdagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil 31-maydagi 239/9-son qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Dissertatsiyalar ilmiy natijalarini amaliyotga joriy qilinishini baholash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalari to’g’risida”gi hamda universitetning Ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti (keyingi o‘rinlarda - “Universitet” deb yuritiladi) nomidan rektor Sh.S.Sharipov, bir tomondan talabgor

(F.I.O)

ikkinchi tomondan (keyingi o‘rinlarda - “talabgor” deb yuritiladi), mazkur shartnoma tomonlar tomonidan imzolandi.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Talabgor O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va ta’limga ilmiy-texnik tajriba-sinov ishlariga oid bo‘lgan boshqa normativ huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi.

II. Tajriba sinov ishlarini tashkil qilish tartibi

2.1 pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qo‘yilgan talablarning hamda tajriba-sinov ishlarini boshqarishning funksiyalari va metodlarini asosida olib boradi.

2.2 pedagogik tajriba-sinov obyektini tanlash va respandentlar tayyorgarligiga qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablar inobatga olinadi.

2.3 pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish samaradorligini aniqlash mezonlari asosida baholanadi.

2.4 pedagogik tajriba-sinov ishlari statistik tahlilining optimal usullari ko‘rsatiladi.

III. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Universitetning majburiyatlari:

Talabgorga O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, ta’limga ilmiy-texnik tajriba-sinov ishlariga oid bo‘lgan boshqa normativ huquqiy hujjatlar hamda

Universitet Ustavida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlarga asosan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.

Talabgorning ixtisosligi bo'yicha tayyorlangan tajriba-sinov ishlari dasturini ko'rib chiqib, istisno tariqasida taklif berish.

Talabgorga ixtisosligi bo'yicha belgilangan kompetensiyalarni ega professor-o'qituvchi(lar) biriktirish.

Talabgorga universitetning moddiy texnik bazalaridan foydalanish imkoniyatini berish.

3.2. Talabgorning majburiyatlari:

Ta'lim olish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari talablariga, jamiyatning axloqiy prinsiplariga, ma'naviy qadriyatlarga qat'iy rioya qilish.

Universitetning Ustavi, Ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq qoidalari bilan tanishib chiqish hamda ularga qat'iy rioya qilish.

Talabgor universitet tomonidan talab etiladigan quyidagi hujjatlarni taqdim etishi talab etiladi:

- *Disseratatsiya mavzusining tasdiqlanganligi (OAK Byulleteni yoki OTM kengashi qaroridan ko'chirma);*

- *Tajriba-sinov ishlari dasturi (ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan shakli);*

- *Anketa so'rovnomasi va test banki.*

Talabgor tajriba-sinov ishlari yakuni bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirishda yakunlovchi hujjatlarning (savol-javob, anketa, test va statistik tahlil natijalaridan nusxa) asoslari taqdim etishi talab etiladi.

Talabgor o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

Tegishli kafedra va dekanat bilan mustahkam aloqada bo'lish.

Tajriba-sinov ishlari o'tkazilayotgan respondentlardan roziligini olish.

Respondentlar, boshqa ilmiy izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar bilan xushmuomalada bo'lish.

Universitet mulklariga ehtiyotkor va tejamkor munosabatda bo'lish, ularga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ziyon yetkazmaslik, ziyon yetkazgani taqdirda zarar o'rnini o'rnatilgan tartibda qoplash, ashyolarni auditoriyadan yoki binodan tashqariga olib chiqmasligi.

Universitet hududida, bino ichida, yo'laklarda, auditoriyalarda sanitariya qoidalariga rioya qilish, ifloslantirmaslik, nos va tamaki mahsulotlarini chekmaslik.

Kiyinish madaniyatiga rioya qilish, o'quv auditoriyasida bosh kiyimda, diniy ibodat kiyimlarida yurmaslik, bezak va taqinchoqlarga hirs qo'ymaslik. Tashqi ko'rinishi va yomon xulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, axloq-odob normalariga so'zsiz bo'ysunish.

IV. Tomonlarning huquqlari

4.1. Universitetning huquqlari:

Tajriba-sinov ishlari dasturida belgilangan vazifalardan tashqari faoliyat olib borilganda tajriba-sinov ishlarini to'xtatish.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini nazorat qilish.

4.2. Talabgorning huquqlari:

Fan, texnika, zamonaviy texnologiya yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish hamda Universitet tomonidan taqdim etiladigan qo‘shimcha ta‘lim xizmatlaridan foydalanish.

Mazkur shartnoma bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning o‘z funksional vazifalarini bajarishidan yoki ta‘lim muassasasidagi shart-sharoitlardan norozi bo‘lgan taqdirda talabgorning universitet rektoriga yozma shaklda murojaat qilish.

Bepul maslahatlar, tavsiyalar olish, o‘quv auditoriyalari, laboratoriyalari va ta‘lim jarayoniga oid vositalardan o‘rnatilgan tartibda bepul foydalanish.

Universitetning axborot-resurs markazida mavjud bo‘lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta‘lim resurslari va vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish.

Auditoriyalar, ta‘lim vositalari sanaluvchi ashyolardan o‘rnatilgan tartibda bepul foydalanish.

Ta‘lim jarayoni samaradorligi va ta‘lim sifatini oshirish yuzasidan o‘z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda universitet, dekanat, kafedra rahbariyatiga va ilmiy bo‘limga bildirish va ularni ko‘rib chiqilishini talab qilish.

V. Shartnomaning amal qilish muddati, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda bekor qilish tartibi

5.1. Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolangandan so‘ng kuchga kiradi hamda tajriba-sinov ishlari muddati (uch o‘quv yili) tugagunga qadar amalda bo‘ladi.

5.2. Ushbu shartnoma shartlariga ikkala tomon kelishuviga asosan tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

5.3. Shartnomaga tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar faqat yozma ravishda “Shartnomaga qo‘shimcha bitim” tarzida kiritiladi va imzolanadi.

5.4. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan;
- tomonlardan biri o‘z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda;
- uzrli sabablar bilan, talabgorning tashabbusiga ko‘ra.

VI. Yakuniy qoidalar va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnomani bajarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizo va ziddiyatlar tomonlar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.

6.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, tomonlar nizolarni hal etish uchun amaldagi qonunchilikka belgilangan tartibda hal etiladi

6.3. Ushbu shartnomaga qo‘shimcha bitim kiritilgan taqdirda ushbu barcha kiritilgan qo‘shimcha bitimlar shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

VII. Tomonlarning imzolari:

**Jizzax davlat pedagogika
universiteti:**

O‘zbekiston Respublikasi, 130100,
Jizzax shahri, Sh.Rashidov shox
ko‘chasi, 4-uy. Tel. +99872-226-13-57
Veb-sayt: www.jdpu.uz

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti rektori:

_____ Sh.S.Sharipov
« ___ » _____ 202__ yil

Talabgor:

« ___ » _____ 202__ yil